



## XALQ OG'ZAKI IJODINING TA'LIM-TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

*Imomova Muazzam Rafiqjon qizi*

*E-mail: [muazzamimomova1994@gmail.com](mailto:muazzamimomova1994@gmail.com)*

*Tel: +998 998155343*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi vositalari orqali talabalarda ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlar, nutq madaniyatini rivojlantirish modelini takomillashtirish yoritilgan. Maqolada talabalar nutqiga e'tibor qaratiladi. Taklif etilgan metodik yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Talabalar, ta'lim, tarbiya, nutq madaniyati, xalq og'zaki ijodi, pedagog, tarbiyachi, maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi, ertak, doston, maqol, matal, topishmoq, tez aytish, qo'shiq, rivoyat va afsonalar

Xalq og'zaki ijodi xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlari, estetik didi va tarbiyaviy qarashlarini o'zida mujassam etgan bebaho manbadir. Ertak, doston, maqol, matal, topishmoq, tez aytish, qo'shiq, rivoyat va afsonalar orqali avloddan avlodga nafaqat badiiy tafakkur, balki axloqiy me'yorlar, muloqot madaniyati, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari ham uzatilgan.

Ta'lim-tarbiyaviy nuqtai nazardan xalq og'zaki ijodi o'quvchi va talabani tayyor bilimni yodlashga emas, balki hayotiy voqelikni obrazli idrok etishga, ramziy fikrlashga, taqqoslashga, xulosa chiqarishga va muloqotga kirishishga undaydi. Shu bois u zamonaviy pedagogik jarayonda faqat folklor materiali emas, balki shaxsni rivojlantiruvchi metodik resurs sifatida baholanadi.

Xalq og'zaki ijodining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilishda til, tarbiya, psixologiya va pedagogika kesishgan nuqtada yondashish muhimdir.



Chunki bu manbalar bir tomondan bolaning nutqini boyitsa, ikkinchi tomondan unda ijtimoiy xulq, ma'naviy mas'uliyat va estetik sezgirlikni shakllantiradi. Maktabgacha ta'limda u nafaqat "milliy meros" sifatida, balki tarbiyachi va bola muloqoti orqali axloqiy-estetik qimmatliklarni singdirish, nutqiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, insoniy fazilatlarini shakllantirishning tabiiy didaktik resursi sifatida ham muhim o'rin tutadi<sup>1</sup>.

Xalq og'zaki ijodining ta'limiy imkoniyati, avvalo, undagi bilim va tasavvurlarni tabiiy, tushunarli va obrazli tarzda yetkazish xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, topishmoqlar predmet va hodisalarni ularning tashqi belgisi, vazifasi yoki harakati orqali tasvirlaydi. Bu esa o'quvchida kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash va tasniflash qobiliyatini rivojlantiradi. Tez aytishlar nutq apparatini chiniqtiradi, talaffuzni to'g'rilaydi va fonetik sezgirlikni kuchaytiradi. Maqollar esa qisqa shaklda chuqur mazmun berib, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmasini o'stiradi.

Didaktik nuqtai nazardan ertak va rivoyatlar bog'lanishli nutqni rivojlantirish, matn mazmunini anglash, qahramon xarakterini tahlil qilish va voqealar izchilligini tushunishda samarali vosita hisoblanadi. Talaba yoki o'quvchi ertakni tinglash, qayta hikoya qilish, obrazlarni taqqoslash, muqobil yakun yaratish orqali ijodiy tafakkurga kirishadi. Bunda bilim tayyor ko'rinishda emas, faol intellektual faoliyat jarayonida o'zlashtiriladi.

Xalq og'zaki ijodi materiallari ona tili ta'limi, nutq o'stirish, adabiyot, tarbiya va hatto boshlang'ich tabiatshunoslik darslari bilan integratsiyalashishi mumkin. Masalan, fasllar, hayvonlar, kasblar yoki insoniy fazilatlar haqidagi topishmoq va maqollar tematik ta'limni kuchaytiradi. Shunday qilib, xalq og'zaki ijodi ta'lim mazmunini milliy ruhda boyituvchi va fanlararo bog'liqlikni mustahkamlovchi resurs vazifasini bajaradi.

Tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi axloqiy qadriyatlarni singdirishning tabiiy va ta'sirchan vositasidir. Ertaklarda ezgulik va yovuzlik, halollik va

<sup>1</sup> Karimov N. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.



hiyla, jasorat va qo'rqoqlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi qarama-qarshi sifatlar obrazlar orqali ko'rsatiladi. Shu yo'l bilan bola yoki talaba axloqiy mezonlarni quruq nasihat orqali emas, obrazli voqea va hissiy ta'sir orqali anglaydi. Tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi axloqiy qadriyatlarni singdirishning tabiiy, hayotiy va ta'sirchan vositasi hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, xalq og'zaki ijodi namunalari - ertak, rivoyat, afsona, maqol, matal, topishmoq, doston va latifalar - xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, orzu-intilishlari va ijtimoiy idealini o'zida mujassam etadi. Shu bois bu janrlar tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lib, inson ongiga quruq buyruq yoki nasihat shaklida emas, balki badiiy obraz, voqea, hissiy kechinma va hayotiy xulosa orqali kirib boradi.

Xalq og'zaki ijodining axloqiy tarbiyadagi kuchi, avvalo, uning obrazlilik xususiyati bilan izohlanadi. Inson, ayniqsa bola, mavhum tushunchalarga qaraganda aniq obraz va voqealarni tezroq qabul qiladi. Masalan, "halol bo'l", "yolg'on gapirma", "mehnatsevar bo'l", "kattalarni hurmat qil" kabi nasihatlar bevosita aytilganda ular oddiy qoida sifatida eshinishi mumkin. Ammo ayni g'oya ertakdagi qahramonlarning taqdiri orqali berilganda, u bolaning xotirasida uzoq saqlanadi. Chunki bola voqeani kuzatadi, qahramon bilan birga quvonadi yoki qayg'uradi, uning xatti-harakatiga baho beradi va o'zi uchun xulosa chiqaradi.

Masalan, ko'plab xalq ertaklarida ezgulik va yovuzlikning kurashi markaziy o'rinni egallaydi. Ijobiy qahramon odatda halol, sabrli, mehnatkash, mehribon va adolatparvar bo'ladi. Salbiy qahramon esa ochko'z, yolg'onchi, hiylakor, zolim yoki dangasa sifatida tasvirlanadi. Voqealar rivoji esa ko'pincha shunday quriladiki, ezgulik g'alaba qiladi, yovuzlik esa yengiladi. Bu holat axloqiy qonuniyatni badiiy shaklda ko'rsatadi: yaxshi xulq jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, yomon xulq esa oxir-oqibat salbiy oqibatga olib keladi.



Masalan, xalq ertaklarida kambag'al, ammo halol va pok niyatli qahramon sinovlardan o'tib, oxirida baxtga erishadi. Boy, lekin ochko'z va hiylakor obraz esa sharmanda bo'ladi yoki yengiladi. Bu orqali bolaga yoki talabaga halollikning ichki kuchi, insofsizlikning esa vaqtinchalik ustunlik berishi, ammo barqaror g'alaba keltirmasligi anglatiladi. Bunday xulosa to'g'ridan-to'g'ri buyruq bilan emas, voqea mantig'i orqali singdiriladi. Shu sababli uning tarbiyaviy ta'siri kuchliroq bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodining axloqiy tarbiyadagi samaradorligini tushuntirishda uning hissiy-ta'sirchanlik tabiati ham muhimdir. Tarbiya faqat aqlga emas, qalbga ham ta'sir qilishi kerak. Ertak yoki rivoyat tinglayotgan bola oddiy tinglovchi bo'lib qolmaydi; u qahramonning holatini ichdan his qiladi. Masalan, yetim bola haqida hikoya qilinsa, unda rahm-shafqat uyg'onadi; mehnatkash qahramon muvaffaqiyatga erishsa, unda mehnatga hurmat paydo bo'ladi; xiyonat yoki yolg'on oqibatini ko'rsa, yomonlikka nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Demak, xalq og'zaki ijodi axloqiy me'yorlarni faqat tushuntirmaydi, balki his qildiradi. Tarbiyada esa aynan his etilgan qadriyat ko'proq barqaror bo'ladi.

Buni mehnatsevarlik va dangasalik qarama-qarshiligida ham ko'rish mumkin. Ko'plab ertak va maqollarda mehnat ulug'lanadi, dangasalik esa qoralanadi. Masalan, "Mehnatning tagi rohat", "Ishlagan tishlaydi", "Yotgan ho'kiz och qolar" kabi maqollar xalqning mehnatga bergan axloqiy bahosini ifodalaydi. Bu maqollar qisqa bo'lsa ham, ular ortida katta hayotiy falsafa yotadi: inson o'z rizqi, obro'si va kamolotiga mehnat orqali erishadi. Ertaklarda ham ayni fikr voqealar bilan kuchaytiriladi: harakat qilgan, izlangan, sabr qilgan qahramon maqsadiga yetadi; dangasa yoki tayyorga ayyor bo'lgan obraz esa yutqazadi. Natijada bola yoki talaba "mehnat qilish kerak" degan qoidani eshitibgina qolmay, uning hayotiy zarurat ekanini anglaydi.

Halollik va hiyla mavzusi ham xalq og'zaki ijodida juda ko'p uchraydi. Masalan, ayrim ertak va latifalarda hiylakor qahramon bir muddat foyda



ko'rgandek tuyuladi, ammo oxirida o'z qilig'ining qurboniga aylanadi. Halol qahramon esa boshida qiynalsa ham, oxir-oqibat ishonch, hurmat va saodatga erishadi. Bu orqali axloqiy tarbiyaning muhim g'oyasi beriladi: halollik faqat shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy ishonchning asosi hisoblanadi. Hiyla esa vaqtincha foyda berishi mumkin, lekin oxir-oqibat insonni obro'sizlantiradi.

Jasorat va qo'rqqoqlik qarama-qarshiligi ham tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Xalq dostonlari va qahramonlik ertaklarida jasorat ko'pincha yuksak qadriyat sifatida tasvirlanadi. Bunda jasorat faqat jismoniy kuch emas, balki to'g'ri yo'lda sobit turish, adolatni himoya qilish, qo'rqqmasdan haqiqatni ayta bilish, xalq va Vatan manfaatini himoya qilish sifatida talqin etiladi. Qo'rqqoqlik esa nafaqat zaiflik, balki ma'naviy nuqson sifatida baholanadi. Bunday tasvirlar yosh avlodda botirlik, qat'iyat va mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalaydi.

Masalan, doston qahramonlari ko'pincha nafaqat kuchli, balki vafodor, so'zida turadigan, ota-ona va yurt sha'nini himoya qiladigan insonlar sifatida ko'rsatiladi. Demak, jasorat xalq og'zaki ijodida yalang'och kuch emas, balki axloqiy yuksaklik bilan birga namoyon bo'ladi. Bu juda muhim, chunki tarbiya jarayonida bolaga "kuchli bo'l" degandan ko'ra "haq yo'lda matonatli bo'l" degan ma'no singdiriladi.

Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyatini yanada kuchaytiradigan jihat uning milliylik va hayotiylikka yaqinligidir. Bolalar va yoshlar o'z xalqiga xos obrazlar, iboralar, urf-odatlar, qahramonlar, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar tasvirlangan matnlarni osonroq qabul qiladilar. Chunki ular bu obrazlarda o'z muhitini, xalqining dunyoqarashini va ma'naviy qadriyatlarini ko'radi. Shu sababli xalq og'zaki ijodi orqali berilgan tarbiya begona yoki sun'iy emas, tabiiy va ichki qabul qilinadigan tarbiya bo'ladi.

Masalan, maqollarda ota-onaga hurmat, qo'ni-qo'shnichilik, kattaga izzat, kichikka mehr, sabr, andisha, hayo kabi qadriyatlar juda ixcham, ammo



kuchli shaklda ifodalanadi: “Ota rozi - Xudo rozi”, “Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l”, “Yaxshidan bog‘ qoladi” kabi hikmatlar yosh avlodning ongiga axloqiy mezonlarni sodda, tushunarli va esda qolarli shaklda singdiradi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, xalq og‘zaki ijodida axloqiy tarbiya bevosita buyruqbozlik usuli bilan emas, balki indirekt, ya’ni bilvosita ta’sir orqali amalga oshadi. Bu esa zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan juda muhim. Chunki kuchli tarbiya ko‘pincha insonni majburlash bilan emas, uning ichki e’tiqodini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ertakni tinglagan bola “shunday qil” degan tayyor hukmni emas, “nega yaxshi odam g‘olib bo‘ldi?”, “nega yomon qahramon yutqazdi?”, “men o‘rnimda nima qilardim?” degan ichki savollarni boshdan kechiradi. Ana shu ichki mushohada esa axloqiy ongni shakllantirishda muhim omildir.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, xalq og‘zaki ijodi quyidagi yo‘nalishlarda axloqiy qadriyatlarni singdiradi.

Birinchidan, baholash mezonini shakllantiradi. Bola yaxshi va yomon xatti-harakatni farqlashni o‘rganadi.

Ikkinchidan, ideal obrazni yaratadi. yosh ongida qanday inson bo‘lish kerakligi haqida tasavvur paydo bo‘ladi.

Uchinchidan, hissiy identifikatsiya yuz beradi. Bola ijobiy qahramonga ergashishni, salbiy qahramondan uzoq bo‘lishni xohlaydi.

To‘rtinchidan, xulqiy xulosa mustahkamlanadi. Voqealarning oqibati orqali axloqiy me’yor ongda dalillanadi.

Masalan, tarbiyachi ertak o‘qib bo‘lgach, bolalarga yoki talabalarga shunday savollar berishi mumkin: “Qaysi qahramon sizga yoqdi va nima uchun?”, “Qaysi ish to‘g‘ri, qaysi biri noto‘g‘ri edi?”, “Siz shu qahramon o‘rnida bo‘lsangiz nima qilardingiz?”, “Bu voqeadan qanday xulosa chiqardingiz?” Bunday savollar orqali xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy mazmuni yanada chuqurlashtiriladi. Ya’ni matn faqat tinglanmaydi, balki tahlil qilinadi, shaxsiy xulosa darajasiga ko‘tariladi.



Xalq og‘zaki ijodi tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni singdirishning tabiiy va ta’sirchan vositasi bo‘lib, u ezgulik va yovuzlik, halollik va hiyla, jasorat va qo‘rqoqlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi qarama-qarshi sifatlarni obrazli tizimda ochib beradi. Shu orqali bola va talaba axloqiy me’yorlarni quruq nasihat sifatida emas, balki voqea, obraz, hissiy kechinma va hayotiy xulosa orqali chuqur anglaydi. Bunday ta’sir shakli esa axloqiy tarbiyani barqaror, ichki va samarali qiladi.

Maqol va matallar xalq og‘zaki ijodining eng ixcham, mazmunan chuqur va tarbiyaviy jihatdan ta’sirchan janrlaridan biridir. Ular xalqning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, mehnatga, odobga, insoniy munosabatlarga va ijtimoiy xulqqa bergan bahosini o‘zida mujassam etadi. Shu sababli maqol va matallar ta’lim-tarbiya jarayonida yosh avlodga tayyor axloqiy mezon, hayotiy xulosa va xulqiy yo‘nalish beruvchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolning asosiy xususiyati shundaki, unda fikr juda qisqa, lo‘nda, aniq va umumlashgan holda ifodalanadi. Ammo shu qisqalik ortida katta ma’no, hayotiy kuzatuv va axloqiy xulosa yotadi. Masalan, “Yaxshilik qil, dengizga ot, baliq bilmasa, Xoliq bilar” maqoli insonni ezgulikka, beg‘araz yaxshilik qilishga undaydi. Bu yerda yaxshilik evaz kutib emas, insoniy burch sifatida bajarilishi kerakligi ta’kidlanadi. Tarbiya jarayonida bunday maqollar bolalarda savob, mehr-oqibat, saxovat va odob kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Maqol va matallarning tarbiyaviy kuchi, avvalo, ularning xalq tajribasiga tayanganligi bilan izohlanadi. Oddiy nasihat ko‘pincha subyektiv tuyulishi mumkin, ammo maqol xalq donishmandligining mahsuli bo‘lgani uchun u hayot sinovidan o‘tgan xulosa sifatida qabul qilinadi. Shu bois tarbiyachi yoki o‘qituvchi biror xulqiy qoida haqida gapirganda uni maqol bilan mustahkamlasa, fikr yanada ta’sirchan bo‘ladi.



Masalan, mehnat tarbiyasida “Mehnatning tagi rohat”, “Ishlagan tishlaydi”, “Mehnat qilgan xor bo‘lmas” kabi maqollar juda samarali vosita hisoblanadi. Bu maqollar orqali yosh avlodga mehnat inson hayotining asosi, farovonlik manbai va hurmat mezonini ekanligi singdiriladi. Bola yoki talaba shu maqollarni ko‘p eshitib ulg‘aysa, uning ongida mehnatsevarlik ijobiy fazilat, dangasalik esa qoralanuvchi holat sifatida shakllanadi.

Tarbiyaviy suhbatlarda maqollardan foydalanishning yana bir afzalligi shundaki, ular mushohada yuritishga undaydi. Masalan, tarbiyachi yoki o‘qituvchi “Avval o‘yla, keyin so‘yla” maqolini aytib, undan keyin “Nega xalq shunday degan?”, “Shoshilib gapirish qanday oqibatga olib kelishi mumkin?”, “Bu maqol nutq madaniyatiga qanday bog‘liq?” kabi savollar bersa, bola yoki talaba nafaqat maqolni yodlaydi, balki uning mazmuni ustida fikr yuritadi. Shu tariqa maqol axloqiy va intellektual tarbiya vositasiga aylanadi.

Pedagogik jihatdan maqol va matallarni qo‘llashning bir necha samarali usullari mavjud. Birinchisi, mavzuga mos maqol tanlash. Masalan, halollik haqida suhbatda rostgo‘ylik haqidagi maqollar, mehnat haqida darsda mehnatsevarlikka oid maqollar ishlatiladi. Ikkinchisi, maqol mazmunini tahlil qilish. Bu usulda bolalar yoki talabalar maqolning ma‘nosini o‘z so‘zlari bilan izohlaydilar. Uchinchi usul, hayotiy misol keltirish. Masalan, “Mehnatning tagi rohat” maqoliga mos real hayotiy vaziyat topish topshiriladi. To‘rtinchi usul, maqolni tarbiyaviy vaziyatga bog‘lash. Bu esa hikmatni faqat yodlash emas, amaliy xulqqa aylantirish imkonini beradi.

Alla xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, eng nafis va eng ta’sirchan janrlaridan biridir. U asosan ona tomonidan go‘dakni uxlatish, tinchlantirish, erkalatish va unga mehr ifodalash jarayonida ijro etiladi. Biroq allaning vazifasi faqat bolani uxlatish bilangina cheklanmaydi. U bolaning dastlabki emotsional, ma’naviy, axloqiy, estetik va nutqiy tarbiyasini shakllantiruvchi muhim xalqona vosita hisoblanadi. Shu jihatdan alla bola shaxsining ilk ijtimoiylashuv bosqichida juda katta pedagogik ahamiyat kasb etadi.



Allaning tarbiyaviy kuchi, avvalo, uning mehr va muhabbatga asoslangan tabiati bilan izohlanadi. Go‘dak hayotining ilk davrida dunyoni avvalo onaning ovozi, ohangi, mehrlil munosabati orqali his qiladi. Alla ana shu mehrning musiqiy va so‘zli ifodasidir. Bola allani tinglar ekan, o‘zini xavfsiz, himoyalangan va sevib ardoqlangan holda sezadi. Psixologik jihatdan bu holat bolada ishonch, xotirjamlik va ijobiy hissiy fonni shakllantiradi. Demak, alla bolaning ruhiy barqarorligini ta‘minlovchi tabiiy tarbiya vositasidir.

Masalan, allalarda ko‘pincha shunday mazmunga yaqin tilaklar uchraydi, bolam dono bo‘lsin, odobli bo‘lsin, elga aralashsin, yomonlikdan yiroq bo‘lsin, yaxshilar qatoridan joy olsin. Bu kabi ifodalar orqali ona aslida o‘z farzandiga nisbatan axloqiy idealni belgilaydi. Demak, alla bolaning ong osti darajasida ijobiy shaxs modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova, M. (2019). Bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.
2. Saidova, G. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
3. Vygotsky, L.S. (1986). Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press.
4. Karimova, D. (2020). Ertaklar orqali bolalar nutqini rivojlantirish usullari. O‘zMU Ilmiy Jurnali, 3(2), 45-58.
5. Mahmudov, N. (2018). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va uning tarbiyaviy ahamiyati. Samarqand: Ma‘naviyat.
6. G‘afurova, S. (2022). Maktabgacha ta‘limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan va Texnologiya.



8. Jalolov, J. (2017). Bolalar psixologiyasi va nutq rivoji. Toshkent: Sharq nashriyoti.

9. UNESCO. (2021). Early Childhood Education and Language Development: Global Perspectives. Paris: UNESCO Publishing